

BO'LAJAK OFITSERLARDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14212645>

Umarov Muxiddin Muysinovich

O'zbekiston Respublikasi Qurollikuchlari

Akademiyasi boshlig'i o'rinnbosari

E-mail:umarov@com.uz

Annotatsiya

ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hammda deontologik madaniyatni rivojlantirishda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

ofitser, shart-sharoit, pedagog, falsafa, muvaffaqiyat, tadqiqot, ta'lim, kompetensiya, kasb, aniqlik

Аннотация

в данной статье рассматриваются педагогические условия развития деонтологической культуры у будущих офицеров, а также проблемы, возникающие при развитии деонтологической культуры и пути их преодоления.

Ключевые слова

офицер, условия, педагог, философия, успех, исследования, образование, компетентность, профессия, точность.

Abstract

this article discusses the pedagogical conditions for the development of a deontological culture among future officers, as well as the problems that arise during the development of a deontological culture and ways to overcome them.

Key words

officer, conditions, teacher, philosophy, success, research, education, competence, profession, accuracy.

Bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tizim tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uni amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlar zarur. Dastlab "pedagogik shart-sharoit" tushunchasiga aniqlik kiritishni lozim deb hisoblaymiz.

"Shart-sharoit" tushunchasi biror-bir jarayon amalga oshadigan muhit sifatida talqin qilinadi⁸³.

Falsafada "sharoit" atamasi predmetning o'z atrofidagi, qaysiki, ularsiz mavjud bo'la olmaydigan hodisalarga munosabatini ifodalovchi toifa sifatida qayd etiladi⁸⁴.

Pedagogik shart-sharoit - tizimning shaxsiy jarayon bilan bog'liq jihatlariga ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy va moddiy makonga yo'naltirilgan muhit imkoniyatlari majmuyi hamda uni samarali tashkil etish va rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik tizim komponentidir⁸⁵.

Yuqorida berilgan ta'rflarga tayangan holda, pedagogik shart-sharoitni biror-bir jarayon amalga oshadigan muhit, ularsiz mavjud bo'la olmaydigan hodisalarga munosabatini ifodalovchi jarayon bilan bog'liq jihatlariga ta'sir ko'rsatuvchi maxsus yo'naltirilgan muhit imkoniyatlari majmui sifatida tushunishimiz mumkin.

Tadqiqot ishimizda doirasida bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlantirish jarayoni quyidagi pedagogik sharoitlarni aniqlashtirishni talab etadi.

Birinchi pedagogik shart-sharoit "bo'lajak ofitser shaxsining deontologik qiyofasiini aniqlashtirish" dan iborat. Bo'lajak ofitser shaxsining deontologik qiyofasini aniqlashda, avvalo, O'zbekiston Respublikasida ta'limga oid qabul qilingan qaror va farmoyishlarda harbiy faoliyatni tashkil etishga doir belgilangan tamoyillar, Mudofaa Vazirligi tizimida harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi, harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning huquq va majburiyatlarini tahlil etish lozim bo'ladi.

Deontologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida, nafaqat, ta'lim oluvchilarni balki, pedagoglarning huquq va majburiyatlarini ham hisobga olish lozim. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 45-46 moddalarida bu borada so'z yuritiladi. Pedagoglarning o'z huquqlarini bilishi kasbiy faoliyatda o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qila olish, kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish, o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish, kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalanish, ta'lim

⁸³ Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. 100000 слов, терминов и выражений. - Изд.: АСТ, 2016. - 1376 с.

⁸⁴ Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова. - 5-е изд. - М.: Политиздат, 1986. - 590 с.

⁸⁵ Ипполитова Н.В. Анализ понятия "Педагогические условия": сущность, классификация / Н.В. Ипполитова, Н.С. Стерхова // General and Professional Education. -2012. - № 1. - С.8-14.

oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etishga imkon berishi bilan ahamiyatli sanalsa, pedagog xodimlarning majburiyatlariga rioya etishi o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazish, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovasion shakllari va usullaridan foydalanish, ta'lism oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etmaslik kabi talablarni ilgari suradi. Bu esa ta'limi muhitda deontologik munosabatlarni namoyon etish bilan birga xorijiy til kursantlari nigohida pedagoglar shaxsiyatida ijobiy qiyofani ro'yobga chiqarish va shu asnoda kelgusidagi kasbiy faoliyatiga nisbatan qadriyatli munosabatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi⁸⁶ ⁸⁷.

Shuningdek, kasbiy professionallikda bo'lajak ofitserlarning ta'lism oluvchilarning huquqlari va majburiyatlarini bilishi harbiy axloqiy-deontologik munosabatarni to'g'ri tashkil etishda dolzarb sanaladi. "Ta'lism to'g'risida"gi qonunning 47-moddasida "Ta'lism oluvchilarning huquqlari" belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu huquqlarining barbod etilmasligi, kursant shaxsiga nisbatan insonparvar va individual yondashishga urg'u berilishi bo'lajak harbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayonining axloqiy-etik talablari majmuini o'zida ifodalaydi.

Ushbu qonunning 48-moddasi "Ta'lism oluvchilarning majburiyatları" haqida ham so'z yuritiladi. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. O'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi; ta'lism-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi; ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lism faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi; axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi; ta'lism-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi⁸⁸ kabilarning belgilab qo'yilganligi pedagogik jarayonda kursant-kursant va pedagog-kursant munosabatlarini deontologik mazmunda yo'lga qo'yishga asos bo'ladi, deb hisoblaymiz.

⁸⁶ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi 637-sون Qonuni. - T., 2020.

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi 637-sон Qonuni. - T., 2020.

⁸⁸ Узбекистан Республикасининг "Таълим тугрисида"ги 637-сон Конуни. - Т., 2020.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki fanlararo integrasiya bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Ushbu yondashuvda ijtimoiy-gumanitar fanlarni faqat muayyan bir fan asosidagina o'rganish, faqat bu turkumdagi fanlar imkoniyatidan foydalanib deontologik madaniyatni rivojlantirish mumkin, deb qarash maqsadga muvofiq emas. Tadqiqot ishimizda bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda mutaxassislik va psixologik-pedagogik fanlarning imkoniyatlaridan integrativ asosda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bentham J. Deontology, Bentham J. Deontology together with a table of the Springs Article of Utilitarianism. Oxford: Clarendon Press, 1983 p-121.
2. Беспалко В.11.Педагогик технологияларнинг таркибий қисмлари. М. Педагогика. 1989. -192б.
3. B.Xodjayev.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Т.2017.
4. Tolibov N.N. Bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. – Toshkent -2024 29b.
5. Egamberdiyeva N. ijtimoiy pedagogika. A.Navoiy kutubxona nashriyoti, 2009. -232b.
6. Элконин Б.Д. Понятия компетентности с позиции развивающего обучения. М.2002. с. 52.
7. Farobiy A.N. Baxt-saodatga erishish haqida risolalar to'plami. M.M.Xayrullayev muharrirligi ostida.Toshkent., "Fan", 1975. - 76b.
8. Gilford J.P. Intellekt modeli tarkibidagi ba'zi o'zgarishlar. Ta'lim va psixologik o'lchov, 1988 yil 1-4. 48 b.